

**ZAMONAVIY TEXNIKA VOSITALARINING XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDAGI  
AHAMIYATI****Qurbonov Nodirjon Buriboyevich****Farg'ona davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi****+99891 326 11 98****nodir22@yandex.ru****Qurbonov Komronbek Nodirjon o'g'li****Farg'ona davlat texnika universiteti talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461760>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada televideniye ta'lim sohasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Hozirgi zamon texnika yutuqlaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Televideniye vizual va audiovizual xususiyatlari ta'limda qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi, televideniye ta'limning afzalliklari hamda xorijiy tillarni o'rganishda televideniye dan foydalanish tajribalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, televideniye, audiovizual vosita, xorijiy tili, autentik materiallar, vizual aspekt, kommunikativ qobiliyat, nutqiy ko'nikma, samaradorlik, tadqiqotlar.

**Аннотация.** В данной статье обсуждается значение телевидения в сфере образования. Использование современных технических достижений играет важную роль в повышении качества образования. Обсуждаются положительные воздействия визуальных и аудиовизуальных характеристик телевидения в обучении, преимущества телевизионного образования, а также опыт использования телевидения при изучении иностранных языков.

**Ключевые слова:** образование, телевидение, аудиовизуальное средство, иностранный язык, аутентичные материалы, визуальный аспект, коммуникативная компетенция, речевые навыки, эффективность, исследования.

**Abstract.** This article discusses the importance of television in the field of education. The use of modern technological advancements plays a significant role in improving the quality of education. The positive effects of television's visual and audiovisual features in education, the advantages of television-based learning, and the experience of using television for foreign language acquisition are discussed.

**Keywords:** education, television, audiovisual tool, foreign language, authentic materials, visual aspect, communicative competence, speaking skills, effectiveness, research.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida hozirgi zamon texnika yutuqlaridan foydalanish tobora avj olib bormoqda. Xususan, o'quvchi yoshlarni maktabda o'qitiladigan fanlar bo'yicha televideniye dan foydalanish ayni maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarni internet orqali o'qitishning qay darajada samara berishi ma'lum sabablarga ko'ra barchamizga ayon. Shu sababli televideniye orqali bolalarga ta'lim berish eng qulay usul hisoblanadi.

Ushbu maqola televideniye ta'lim bilan aloqasiga bog'liq asosiy masalalarga to'xtaladi hamda televideniye ta'lim berishda o'quvchilar yutuqlaridagi ijobiy ta'sirini ko'rsatish maqsadida mavjud televideniye tadqiqotlardan olingan misollar bilan televideniye ta'lim sohasida ishlatilishining afzalliklarini ko'rsatib beradi.

Televizionning eng ko'zga ko'ringan jihatlaridan biri shuki, uning vizual aspekt xususiyati borligidir. Inson mazmuni anglash uchun tasvirlarning qudratiga ichki hissiyot bilan intiladi.

Shu o'rinda xalqimizda bir ibratli maqolni keldirishimiz mumkin "Ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan yaxshi". Albatta, televizor informatsiyani turli formalarda taqdim etadi: nafaqat tasvir shaklida, balki harakat, ovoz hamda o'z vaqtida matnni ham ko'rsata oladi. Tadqiqotlarga ko'ra audio va vizual informatsiyaning ko'pligi o'rganishning yanada samaradorligiga sabab bo'ladi, ya'ni har bir element bir-birini to'ldirib boradi.

Biz hammamiz "Ko'rish bu ishonishdir" degan ibratli so'zlarni bilamiz. Shu bilan birga ko'rish bu eslab qolish degani ham, chunki inson xotirasi ko'rganda ko'proq narsani eslab qoladi. Asosan, odamlar faqat ko'rish yoki faqat eshitishga nisbatan ham ko'rib, ham eshitsalar ikki barobar ko'proq eslab qoladilar. Bundan ko'rinadiki, televizordagi ovoz va tasvir kombinatsiyasi ta'lim olishda eng qudratli vositaga aylanadi. Televizorda beriladigan "aralash xabar" (mixed message) ning ta'limdagi foydasi G.Gardnerning turli aqliy qobiliyatlar nazariyasida ham ko'rsatib o'tilgan [3].

O'qituvchilar mashg'ulotlarda televideniyanidan foydalanishda juda kreativ bo'lib, o'quvchilarning bilim olishlarida sezilarli hissa qo'shish uchun foydalanishni biladilar. Bizning xulosalarimizga ko'ra ta'lim berishda televizor orqali o'rgatish:

1. O'qish va ma'ruza materiallarini mustahkamlaydi;
2. O'quvchilar orasida umumiy bilim bazasini rivojlantirishga yordam beradi;
3. Ta'limning turlicha usullaridan keng foydalanishda sharoit yaratadi;
4. O'quvchilarda motivatsiya va entuziazmni oshiradi;
5. O'qituvchilarning ta'lim berishdagi samaradorligini oshiradi.

Televideniye bolalarga bilim olishlarida qanday yordam berishi mumkin? Tadqiqotlarga ko'ra ko'rish eslash hamdir, ya'ni "ko'rish bu ishonishdir". Insonning eslab qolish qobiliyati tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra quyidagilarni ko'rsatadi [1]:

- 10% o'qiganda eslab qolish;
- 20% eshitganda eslab qolish;
- 30% ko'rganda eslab qolish;
- 50% ko'rganda va eshitganda eslab qolish.

Televidenie bolalarga ma'lumotni ko'rish va eshitish asosida qabul qilish imkonini yaratib, ularning xotira qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, televideniedan o'quv jarayonida to'g'ri va samarali foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Video materiallar xorijiy tillarni o'rganishning samaradorligini oshiradi, chunki uning dramalashtirilgan madaniy konteksti portreti va autentik materiallar boshqa til va madaniyatning o'zaro uyg'unlashuvini tasvirlaydi. Tadqiqotchi Klovis (1997) ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitganida mashg'ulotlarda video materiallarni ishlatish tajribasi haqida yozadi, uning muvaffaqiyatli strategiyalari quyidagilarni o'z ichiga olgan [2]:

- 1) o'quvchilar vizual informatsiyani ko'chirib yozishlari uchun video materialni to'xtatib turish;
- 2) ovoqli trekni o'chirib qo'yish: bunda dialogning yetishmayotgan qismini to'ldirish orqali o'quvchilarning ingliz tilidagi og'zaki va yozma nutqini o'stiriladi;
- 3) lug'at boyligi va o'qib tushunish kompetensiyalarini o'stirish maqsadida dasturlar ishlatish;
- 4) ota-onalar ham ingliz tilidagi bilim darajalarini oshirishlari hamda farzandlarining ingliz tilini o'rganishlarida faol ishtirokchi bo'lishlari uchun video yozuvlarning nusxalaridan berish.

O'quvchilar ham Klovisning o'qitish usullaridan shunchalik ruhlanganlarki, ular qo'shimcha ravishda boshqa o'qitish dasturlaridan ham foydalana boshladilar, shuningdek, o'quvchilar o'z qarashlarini maktabdagi quyi sinf o'quvchilari bilan baham ko'rish maqsadida video resurslar bo'yicha rasmlar chizishgan.

Respublikamiz telekanallarida olib borilayotgan xorijiy tili mashg'ulotlari qanchalik autentik hisoblanadi, o'rganuvchilarning yoshi hisobga olingan holda o'tkaziladimi, Respublika telekanallarida faqat ingliz tilini o'rgatilayotganligi, autentik materiallardan juda kam foydalanilayotganligini kuzatish mumkin. Televideniya olib borilayotgan xorijiy tili darslarini muntazam ravishda autentik materiallar bilan boyitish lozim.

### **Xulosa**

Televideniye xorijiy tillarni o'rganishda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Audiovizual vosita sifatida televideniye eshittirib ta'lim berish vositasi sifatida eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Televideniye orqali xorijiy tilini o'rgatishda tili o'rganilayotgan davlatlarning teledasturlaridan foydalanish, ularni xorijiy tili telemashg'ulotlarida faol foydalanish o'rganish materiallarining autentikligini oshiradi. Autentik materiallar o'quvchida tili o'rganilayotgan mamlakat vakillarini eshitib tushunish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Televizor orqali ma'lumotni vizual shaklda qabul qilish jarayoni o'quvchilar xotirasini mustahkamlaydi, chunki ko'rish va eshitish vositalarining kombinatsiyasi ma'lumotni eslab qolishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlar ma'lumotni faqat o'qish yoki eshitish orqali qabul qilgandan ko'ra, bir vaqtda ko'rib va eshitganda ikki baravar ko'proq eslab qoladilar.

Umuman olganda, televideniyaning ta'lim sohasidagi o'rnini yanada samarali qilish uchun autentik materiallardan kengroq foydalanish zarur. Xususan, xorijiy tillarni o'rganishda milliy telekanallarda asl til muhitini aks ettiradigan video resurslar va mashg'ulotlar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Shu tarzda televideniye ta'limning audiovizual vositasi sifatida o'quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Televideniye ta'lim jarayonida bolalarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, inson axborotni faqat o'qiganda yoki eshitganda kamroq eslab qoladi, ammo ko'rib va eshitganda bu ko'rsatkich sezilarli darajada ortadi. Aynan televizion dasturlar ko'rish va eshitish imkoniyatlarini birlashtirib, bilimni mustahkamlashga yordam beradi. Vizual va audiovizual axborotning uyg'unligi bolalarning bilimni qabul qilish va yodda saqlash jarayonlarini tezlashtiradi. Bu, ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish va murakkab tushunchalarni o'zlashtirishda juda foydali. Shu bois, televizion ta'lim usullarini to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarni yanada samarali bilim bilan ta'minlash imkoniyati mavjud.

### **References:**

#### **Используемая литература:**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Marshall, J.M. (2002). Learning with technology: Evidence that technology can, and does, support learning. White paper prepared for Cable in the Classroom.
2. Clovis, D.L. (1997). Lights, television, action! Educational Leadership, Vol. 55, pp 38-40, November, 1997.

3. Гарднер, Г. Структура разума: теория множественного интеллекта / Пер. с англ. А.Н. Свирид; под ред. Э.В. Крайникова. — Москва: Издательский дом «Вильямс», 2007. — 512 с. — ISBN 978-5-8459-1153-7.
4. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.